

KASBIY NUTQNING QO‘LLANILISH SOHALARI

Ahmedova Guliyora Shavkatjon qizi

Andijon davlat chet tillari institute Roman-german slavyan tillari fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti Nemis tili yo‘nalishi 101-guruh talabasi

*Ilmiy maslahatchi: **Kabulova U.S.***

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutq odobi, uning shakllanishidagi shart-sharoitlar kasbiy nutqning ahamiyati, ommaviy maruzalarda qollanilishi, nutqda egalik qo‘shimchalaridan foydalanish normalari, adabiy me‘yor va nutqning madaniyati bundan tashqari turli sohalarda qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: nutq odobi, kasbiy nutq, qo‘llanilish, ommaviy ma‘ruzalar, egalik qo‘shimchalari, adabiy me‘yor, nutq madaniyati.

Аннотация: В данной статье рассматриваются речевой этикет, условия его формирования, значение профессиональной речи, ее использование в публичных выступлениях, нормы употребления притяжательных прилагательных в речи, литературный стандарт и культура речи, а также ее употребление в речи различные поля.

Ключевые слова: речевой этикет, профессиональная речь, употребление, публичные лекции, притяжательные наречия, литературная норма, культура речи.

Abstract: This article examines speech etiquette, the conditions for its formation, the importance of professional speech, its use in public presentations, the norms of using possessive adjectives in speech, the literary standard and the culture of speech, as well as its use in various fields.

Key words: speech etiquette, professional speech, usage, public lectures, possessive adverbs, literary norm, speech culture.

Nutq madaniyati, so‘zning qadri, undan foydalanish to‘g‘risida XII-XIII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, o‘z zamonasining buyuk shoirlaridan biri Amir Xusrav Dehlaviy (XIV asr) va albatta, o‘zbek mumtoz adabiy tilining homiysi bo‘lgan Alisher Navoiy o‘zbek tilining boyliklarini namoyon etib, XV asrda olamga mashhur adabiy asarlar yaratishga qodir til ekanini namoyon qildi¹.

O‘tmishda va o‘tmishga oid adabiyotlarda alohida nutqiy mahorat bo‘lgan notiqlik ko‘rinishlari odamlarning kundalik nutqidan, nutqiy faoliyatidan farqlanganligi to‘g‘risida manbalar keltirilgan. Masalan, Qadimgi Yunoniston va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratilib, keyinchali Yevropa nutq madaniyatiga bag‘ishlangan fanning maydonga kelishiga asos bo‘ldi. Mustaqillik

¹ Xalikulova G.E. Qadimgi sharq mutafakkirlarining nutq madaniyati va notiqlik haqidagi qarashlari. – Toshkent, 2023.

necha asrlar davomida yaratilgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosimizni nafaqat o'rganish, balki uni davr talablari asosida qaytadan idrok etish va milliy manfaatimizga xizmat qildirish vazifasini oldimizga qo'ydi. Boy tajribalarimiz negizida milliy istiqloq mafkurasining yangicha tamoyillari yaratildi. Davr barcha ziyolilar qatori tilshunoslar oldiga ham yangi va ulkan vazifalarni qo'ydi. Bu vazifalarni lo'nda qilib, bir tomondan, tilshunoslikning nazariy masalalarini jahon andozalari darajasida tadqiq etish, ikkinchi tomondan, uning amaliy jihatlari, aniqrog'i, nutqiy madaniyat masalalari bilan shug'ullanish tarzida tushunish to'g'ri bo'ladi².

Nutq madaniyati tushunchasining aniq mavjud hodisa ekanligi, ko'rib o'tilganidek, uning adabiy til va adabiy til madaniyati bilan bog'liqligida bo'lsa, ikkinchi tomondan, kishilarning kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqadorligidadir. Adabiy tilning (muayyan me'yorga solingan, silliqlangan madaniy tilning) mavjudligining o'zigina hali nutq madaniyatini tashkil etmaydi. Adabiy tildan, uning madaniylashgan vositalaridan bu tilda gapiruvchi kishilar jamoasi o'z nutqiy faoliyatlarida foydalangandagina adabiy til mavjud nutqiy hodisaga, nutq madaniyatining kuchli vositasiga aylanadi³.

Har bir kishining nutqi individual, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi; vaholanki, asosiy til unsurlari — lug'at tarkibi va grammatik qurilishi yakka shaxslargagina tegishli bo'lmay, umumnikidir, ya'ni muayyan til jamoasiga taalluqli bo'ladi. Nutq kishi tafakkuri, uning ongi bilan chambarchas bog'liqdir. Nutqda kishining o'y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo'ladi⁴.

Talabalarga soha bo'yicha egallagan bilimlarni yozma va og'zaki ravishda o'zbek tilida ifoda etish malakalarini takomillashtirish, sohada qo'llaniladigan terminlar, asosiy tushunchalar va soha doirasida qo'llaniladigan hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta'minlash, nutq uslublari, xususan sohada ilmiy va rasmiy uslub imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi⁵.

Nutqning me'yorlashuvi uning adabiy va lingvistik idealga mos kelishidir.

Adabiy tilda me'yorlarning quyidagi turlari ajratiladi⁶:

- yozma va og'zaki nutq shakllari me'yorlari;
- yozma nutq me'yorlari;
- og'zaki nutq me'yorlari.

Og'zaki va yozma nutq uchun umumiy me'yorlarga quyidagilar kiradi:

- leksik me'yorlar;
- grammatik me'yorlar;

² <https://azkurs.org>

³ <https://www.wikipedia.org>

⁴ <https://cyberlelinka.ru>

⁵ <https://uz.unanssea.com>

⁶ <https://academy.uz>

- stilistik me'yorlar.

Yozma nutqning maxsus me'yorlari quyidagilardir:

- imlo me'yorlari;
- tinish belgilari standartlari.

Faqat og'zaki nutq uchun qo'llaniladi:

- talaffuz me'yorlari;
- stress me'yorlari;
- intonatsiya me'yorlari⁷.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, nutq aloqa-aralashuv vazifasidan tashqari yana boshqa vazifalar, chunonchi, poetik vazifa ham bajarishi mumkin. Nutqning alohida ko'rinishi o'qishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalikulova G.E. Qadimgi sharq mutafakkirlarining nutq madaniyati va notiqlik haqidagi qarashlari. – Toshkent, 2023.

Axborot manbalari:

2. <https://azkurs.org>
3. <https://www.wikipedia.org>
4. <https://cyberlelinka.ru>
5. <https://uz.unanssea.com>

⁷ <https://www.wikipedia.org>